

## ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING QO'LLANISH O'RINLARI

**Aldashev Ilhomjon**

*Farg'ona davlat universiteti Axborot  
texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

**Ma'murova Dilyora**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya  
fakulteti 1-kurs 23.85-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada hozirgi kun jamiyatida zamonaviy axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish o'rinlari keng yoritib berilgan. Asosan, ta'lim sohasiga texnologiyalarning olib kelgan qulayliklari haqida gap yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Axborot, texnika, texnologiya, internet, elektron darslik, masofaviy ta'lim.*

**Abstract:** *In this scientific article, modern information technologies and the places of their use in today's society are widely covered. Mainly, it was talked about the convenience that technology has brought to the field of education.*

**Key words:** *information, technique, technology, internet, e-textbook, distance education.*

Hozirgi kun, XXI asrni, zamonaviy texnologiyalar asri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunimizni texnik vositalarsiz, texnologiyalarsiz, aniqrog'i, axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Negaki, hayotimizning ko'plab sohalarida axborot texnologiyalari o'zining ta'sirini sezilarni darajada ko'rsatgani barchamizga ma'lum va ravshan.

Axborot texnologiyasi o'zi nima ?

Axborot texnologiyasi – hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni yaratish, saqlash, qayta ishlash, qayta tiklash va uzatish usullari hamda ushbu vositalarni faol yuritish jarayonining tamoyillari va ularni boshqarish usullarini tizimlashtiruvchi texnik fandır.

Axborot tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi 439-II son “ Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida “ gi Qonuniga ko'ra , axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmaetlar , faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Hozirda kundalik hayotimizning ko'plab sohalarida biz axborot texnologiyalariga yuzlanmoqdamiz va bunday texnologiyalardan foydalanmoqdamiz. Bu texnologiyalarni yaratilish va iste'molda ishlatishdan maqsad - inson hayotini yaxshilash, balki ortiqcha kuch(energiya) sarflanishidan holi bo'lish. Masalan, excelda biror korxonaning ishchilari oyligini sug'urtalar va ushlanmalarsiz hisoblashda har bir

oylikni bittadan kalkulyator orqali hisoblamasdan excelda bitta funksiya orqali hamma ishchini sof oyligini oson va tez keltirib chiqarish mumkin.

Bunday axborot texnologiyalari hayotimizning ko'p sohalarida foydalanib kelinmoqda. Masalan,

- biznes sohasida
- bank va robotatexnika sohasida
- ta'lim , san'at va fan sohalarida

Sanab o'tilgan sohalardan ta'lim sohasiga to'xtalib o'tsak. Barcha sohalarda kabi axborot texnologiyalari o'quv jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu holatni nimalarda ko'rishimiz mumkin ?

Bundan bir necha yil muqaddam yurtimizda yuz bergan koronavirus pandemiyasi jarayonidagi o'quv ishlarining texnologiyalar orqali yo'lga qo'yilganidir. Bu shunday yuz berdi: barcha o'quvchilar axborot texnologiyalari va internetdan foydalanib masofaviy ta'lim orqali dars mashg'ulotlarini kuzatishdi. Bu jarayon ko'plab afzalliklarni ko'rsatdi. Chunonchi, pandemiya paytida bunday masofaviy ta'lim bo'lmaganida edi, o'quvchilar savodsiz bo'lib qolishar edi.

Bunday og'ir zamonlar ham ortda qoldi. Hozirgi tinch paytda ham o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish kengaymoqda. Ta'limda bunday texnologiyalaridan foydalanishning qanday qulayliklari bor?

Bunday qulayliklarni quyidagi ko'rinishlarda ko'rishimiz mumkin.

- o'qituvchi darsda mavzuni o'quvchilarga taqdimot yoki boshqa tushunarli ko'rinishda oson yetkazib berishi, o'quvchilar esa darsdagi ma'lumotlarni takroriy ko'rishi ;

- elektron darsliklar tarkibidagi ko'rgazmali stendlar tashkil etish imkoniyati;

- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio yoki animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish;

- kimyo va biologiya fanidagi laboratoriya mashg'ulotlaridagi real hayotda o'tkazib bo'lmaydigan jarayonlarni texnologiyalar orqali elektron darslarda o'tkazish. Masalan, meditsina talabalari insonning yuragini o'rganishi kerak bo'lsa, haqiqiy yurakni topib bo'lmaydi, xuddi shu vaziyatda texnologiyalar orqali elektron ko'rinishdagi videolar orqali bunday jarayonlarni kuzatishi mumkin;

- elektron texnologiyalar orqali o'quv materiallaridan bir yoki bir necha auditoriyada, guruhda ko'p marotaba foydalanish;

- texnologiyalar orqali elektron o'quv materiallaridagi ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirish imkoniyatining mavjudligi, bunday jarayonda vaqt ancha tejiladi, chunki bu ma'lumotlar elektron bo'lmasdan yozma shaklda bo'lganida bir ma'lumotni o'zgartirish uchun barcha bazani yangi yozib chiqishga to'g'ri kelar edi. Bu esa ko'p vaqt olar edi.

Elektron darsliklarning alohida o'rni. Bunday darsliklar ta'lim sohasida alohida ahamiyatga ega. Masalan, talaba biror-bir kitobni o'qimoqchi, bu kitobni topish uchun viloyat kutubxonalariga borishi kerak bo'ladi, ammo kitobni internet orqali electron

kutubxonalardan olishi , borib-kelishga ketgan vaqtini kitob o'qishga sarflashi mumkin, bunday darsliklarning borligi vaqtni ham tejaydi. Bundan tashqari oliy ta'limda ishlatiladigan ayrim kitoblar kutubxonalarda ham topilmasligi kuzatiladi , shu vaziyatda elektron kutubxonalarning borligi quvonarli holat. Ayni payt eng yaxshi elektron kutubxona sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin: Ziyonet ta'lim kutubxonasi, talabalar uchun axborot izlash markazi , respublika bolalar kutubxonasi kabilar;

- test topshirish jarayonini oladigan bo'lsak, test elektron tarzda olinadiga bo'lsa, vaqt masalasi tejaladi va o'quvchida o'qituvchiga nisbatan shubhalanish ham bo'lmaydi, chunki qaysidir testni javobini belgilanishi bilan to'g'ri yoki noto'g'riligi a'yon bo'ladi. Va talaba ozgina vaqt ichida qanday baholanganini bilib olishi mumkin. Shu kabi texnologiyalarning qulayliklari bor;

-bundan bir necha yillar oldin oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirish ko'p noqulayliklar , ya'ni bir necha soatlab navbat kutishlar keltirib chiqarar edi. Hozirgi texnologiyalar asrida esa bunday noqulaylikarga chek qo'yildi. Endi likda abiturentlar Dtm.uz saytiga kirib onlayn ro'yxatdan navbat kutishlarsiz o'tishlari ta'minlandi.

Texnologiyalar hayotimizga bir mo'jizadek kirib kelgan ekan, ular orqali og'irimiz yengil bo'ldi, bularning qulayliklari orqali har qanday sohada yuksak cho'qqilarni zabt etish imkoniyati yaratildi. Shunday ekan , ularning qulayliklaridan unumli foydalanishimiz, faqatgina yaxshilikka xizmat qilishini tatbiq qilishimiz kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., Ozbekiston: NMIU, 2016.

2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. Oquvchi – yoshlarda axborot istemoli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., “TAFAKKUR QANOTI”, 2016.

3. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023

4. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023

5. O'QUV JARAYONIGA MEDIA TA'LIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023

6. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).

7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.

8. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo'llanilishi. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"

9. THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).

Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.

10. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.